96. Юсупов Қ. Көркем шығармалардың мазмунын үйрениў методикасы. Миллий идентивлик ва оммавий ахборот воситалари. (Илмий мақолалар тўплами), Т. : «Юрист –медиа маркази», 2009. 48-51.

97. Юсупов Қ. И.Юсупов поэзиясын оқытыу усыллары. «НМПИ илим билимлендириу хэм тәрбия мәселелерин раўажландырыудағы орны», (Республикалық илимий-теориялық конференция материаллары), Нөкис, «Қарақалпақстан», 2010, 185-187.
98. Юсупов К.А. Әдебиаттаныу илиминиң жан күйери еди... Илим хэм әдебиаттың машақатлы жолларында. (илимий-әдебий хэм еске түсириулер), Нөкис, 2012, 70-73.
99. Юсупов К.А.. Кәсип өнер коллежлеринде Т.Қайыпбергеновтиң «Көздиң қарашығы» романын үйрениу усыллары. Илимий топлам (Магистрантлар ушын), Нөкис-2012.Б. 93-94.
100. Юсупов К.А. «Т.Қайыпбергеновтиң «Қарақалпақ қызы» романында пейзаж хэм қахарман образы». Хәзирги филология илимлериниң әхмийетли мәселелери. (Республикалық илимий-теориялық конференциясы мақалалар топламы, 1-бөлим), 2013жылы, 76-80.
101. Юсупов К.А. Академиялық лицейлерде Айдос бий образын үйрениу. (Айдос деген уллы киси.). Бердақ миллий мәдениатымыздың байтереги. (Илимий топлам, Нөкис, «Билим», 2013, 24-26.)
102. Юсупов К.А. Әдилбай Қожықбаев-қарақалпақ әдебиатын изертлеуши. «Әдебиатшы - алым хэм устаз » ҚМУ, Нөкис , 2014, 125-133.
103. Юсупов К.А. Әжинияз шайырдың лирикасын оқытыуда интерактив методлардың қолланылыуы. «Қарақалпақ әдебиатының жарық жұлдызлары». (Илимий мақалалар топламы). Нөкис, «Қарақалпақстан», 2015, 42-46.
104. Юсупов К.А. Т.Қайыпбергеновтың «Тәнхә өзиңе мәлим сыр» повестинде қахарман образын жасау усылы. «Қарақалпақ әдебиатының жарық жұлдызлары». (Илимий мақалалар топламы). Нөкис, «Қарақалпақстан», 2015, 42-46.
105. Юсупов К.А. Ғәрезсизлик дәуирде Бердақ дәретиушилигиниң үйренилиуи. «Бердақ-классикалық әдебиатымыздың бийик шыңы» атамасындағы республикалық илимий-теориялық конференция материаллары топламы. КМУ, Нөкис, 2017.
106. Юсупов К.А. Ғәрезсизлик дәуирде Бердақ дәретиушилигин үйрениу. «Классикалық әдебиаты жәмийеттеги манауий жаңаланыу мәселелери» атамасындағы халық аралық илимий-конференция материаллары топламы., Нөкис, «Илим», 2017, 49-51.
107. Юсупов К.А. Содержание и способы изучения внеклассных работ по каракалпакской литературе в академических лицеях. (Международная научно-практическая конференция «Фундаментальные научных исследования».) Астана, 2018.стр.116-122.
108. Юсупов К.А. Фантастикалық романды таллау усыллары. / International scientific –online conference: Intellectual education technological solutions and innovative digital tools. Netherlands conference. January, 2023. - pp. 10-19.



109. Юсупов К.А. Изучение в современной каракалпакской прозы / “England” modern psychology and pedagogy: problems and solution. Vol. 11 No.1 (2023): London conference: January, 2023. - pp. 5-14.
110. Юсупов К.А. Изучение лирических произведений в школе // Международный научно-образовательном электронном журнале «Лучшие интеллектуальные исследования». – Москва: Том-1, часть 8. 10-27- 2023 г. – Стр. 44-52.
111. Yusupov K.A. Qaraqalpaq ádebiyatı boyınsha dógerek jumislarnı shólkemlestiriw usılları // O’zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. Volume 2, No.23 (2023) 2023-10-20. Page-1-13.
112. Юсупов К.А. Методов обучения лирика Ж.Аймурзаева в школе // Международный научный журнал «Научный импульс». – Москва: №14 (100), часть 1. Октября , 2023 г. – Стр. 218-230.
113. Yusupov K.A., SCIENTIFIC AND THEORETICAL ASPECTS OF TEACHING KARAKALPAK FOLKLORE WORKS IN THE SENIOR CLASSES. . “American journal of Public Diplomacy and International Studies. www.grnjournal.us (AJPDIS global research Network), Volume 01, Issue 08, 2023 ISSN (E): 2993-2157, Impact Factor=7.49. SJIF 2023=7.49. Page-20-25.
114. Yusupov K.A. Teaching methods of literary works in Karakalpak literature . “American journal of Science on Internation and Human Development . www.grnjournal.us (AJPDIS global research Network), Volume 01, Issue 08, 2023 ISSN (E): 2993-2750, Impact Factor=7.49. SJIF 2023=7.49. Page-55-60.
115. Yusupov K.A. Scientific and methodological problems of studying Karakalpak literature at schools through extracurricular activities. “Best journal of Internation in sciense, research and Development. (www.bjisrd.com), Volume 2, Issue: 10, 2023 ISSN:2835-3579, New York. Impact Factor=9.1. Page- 317-325.
116. Yusupov K.A. Joqarı klasslarda “Alpamıs” dástanın oqıtıwda interaktiv texnologiyalar // Международный современный научно-практический журнал «Новости образование: Исследование в XXI веке». – Москва: №14 (100), часть 1. Октября, 2023 г. – Стр. 194-205.
117. Yusupov K.A. Joqarı klasslarda xalıq awızeki dástanların oqıtıwda interaktiv texnologiyalar // Международный современный научно-практический журнал «Новости образование: Исследование в XXI веке». – Москва: №14 (100), часть 1. Октября, 2023 г. – Стр. 206-217.

## ABDULLA QODIRIY ASARLARIDA QO‘LLAGAN MAQOLLAR VA ULARNING TAHLILI

**Baratova Marg‘uba Komiljon qizi**

*Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** *Xalq og‘zaki ijodining yorqin namunasi bo‘lgan maqollar badiiy asarlarda ham unumli qo‘llanadi. Ular badiiy asarda turli ma‘no-mazmunni ifodalash uchun ishlatiladi. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning kichik hajmli asarlarida foydalangan maqollari xalq og‘zaki ijodida berilgan maqollarning asl ko‘rinishi bilan qiyosiy tadqiq qilinib, o‘rganib chiqiladi. Ularning badiiy matndagi ma‘nosi va funksiyasi tahlil qilinadi. Abdulla Qodiriy asarlarida qanday xalq maqollardan foydalanganini ko‘rib chiqamiz.*

**Kalit so‘zlar:** *maqol, hikoya, sarlavha, yakun, o‘z ma‘nosi, ko‘chma ma‘no, kinoya, Abdulla Qodiriy.*

### KIRISH

Xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi va eng qisqa namunasi bo‘lgan maqollar badiiy adabiyotning nasriy asarlarida ham keng qo‘llanadi. Maqolada o‘zbek buyuk adibi Abdulla Qodiriyning kichik hajmli nasriy asarlari, ya‘ni hikoya va feletonlarida foydalangan maqollar tahlil qilinib, ularning yozuvchi ijodida tutgan o‘rni muhim ekanligini ko‘rish mumkin. Adib maqollarni asar tilining uslubi uning kimga tegishli ekanligini aniqlab turib shularga mos bo‘lgan maqollarni qo‘llaydi. Ilmli kishi (Kalvak Maxzum) va omi odam (Toshpo‘lat tajang va boshqalar) tilidan aytilgan maqollar bir-biridan farq qiladi. Maqollardan foydalanish orqali yozuvchi o‘z fikrini qisqa-lo‘nda, tushunarli va ta‘sirli qilib bayon qilishga erishadi. Yozuvchi birgina maqol orqali butun bir voqeani izohlashga erishadi. Maqollardan achchiq kinoya maqsadida, yoki yengil kulgu qilish uchun foydalanadi. Yozuvchi deyarli har bir asarida maqollardan unumli foydalanishga harakat qiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Abdulla Qodiriy yozgan asarlarning barchalarida o‘zbek xalq maqollari qatnashgan. Masalan: “Baxtsiz kuyov” tragediyasida, “Tinch ish”, “Juvonboz” hikoyalarida, “Bozor surishtirmaydir” va “Kula-kula o‘lasan” kichik feleto‘nida, “Otam va Bolshevik” (kulgulik), “Tilak”, “Ko‘mak ” uyushmasiga onalar maqolasida, “Dardi yo‘q – kesak, ishqi yo‘q – eshak” kichik hikoyasida, hamda “Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyganda ko‘r” nomli maqolasida foydalangan maqollarni xalq og‘zaki ijodida aslida qanday ma‘no mazmunga egaligini tahlil qilib chiqamiz.

Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov” tragediyasi (sahna asari- Turkiston maishatidan olingan to‘rt pardalik fojea) da asarning bosh qahramoni kuyov bo‘lmish 25 yoshli Solih ismli yetim bolaga otasining do‘sti bo‘lgan Fayziboyning qizini

unashtirish uchun uning amakisi Abdurahim va ellikboshi bilan birga boradilar. Kelin bo'ladigan qiz 16 yoshli Rahima. Sep oldi-berdilari haqida gap keta turib domla-imom (Abdurahimga qarab): Siz xo'p deyabering, bundaqangi yaxman deb o'lturmang, to'yg'a ketkan oqchani Xudo o'zi yetkazadur, qarzdor bo'lsa, bo'lar. Qarz uzilar, xotun yonga qolar, degan so'z bor. Ellikboshi qayog'dagi bo'lmagan so'zlarni gapurib, sizni sustlanturib qo'ydilar. Ul kishining so'zini qo'yabering. To'yg'a ketkan oqchani Xudo o'zi yetkazadur – xalqimizda to'yga qush qanotini yozibdi, To'yning boshi boshlanguncha degan naql bor. Biron kim to'y qilmoqchi bo'lsa-yu, yetarli mablag'i bo'lmasa, tashvishlanmasligi uchun yaqinlari shu iborani ishlatadilar. Qarz uzilar, xotun yonga qolar – Qarz ol-da, xotin ol, qarzdor qarzin olar, xotin Abdurahim:- Ey, ahmoq ekansan-ku, yaramas gaplarni gapirma. Fotiha xudoning muhri, debdurlar, fotihadan qaytsang kishini fotiha uradur, “Keyingi pushmon jonga dushman” degandek, bir kasalg'a yo'luqib, keyin pushaymon bo'lib yurma... “Keyingi pushmon jonga dushman”- bilmasdan, oxirini o'ylamasdan avval biron ish bajarib bo'lib, so'ng uning oqibatidan qattiq pushaymon bo'lganda, ko'pincha bunday natijani to'g'irlab yoki o'zgartirib bo'lmasligida ishlatiladigan maqol o'z ma'nosida foydalanilgan. Solih va Rahimaning vafotidan so'ng uylarida barcha kishilar jam bo'lgan vaqtda ellikboshi kelin bo'lmishning otasiga qarata: - Endi sizga Xudo sabr bersin. Yig'ining foydasi yo'q. Har narsa qildingiz, o'zingizg'a qildingiz, o'z oyog'ingizg'a bolta urdingiz. O'z oyog'ingizg'a bolta urdingiz o'z oyog'ingga o'zing bolta urma, o'zing turgan shohni kesma kabi variant bo'lib, o'ziga o'zi zarar yetkazuvchi insonga nisbatan aytiladi. Bu yerda orzu-havas deb qizi va kuyovidan ayrilgan otaga nisbatan aytiladi. Bu yerda otaning qilmishini, orzu-havas doim ham yaxshilikka olib bormasligi tana qilib aytiladi. “Tinch ish” hikoyasida Domla Sharif Oxundning mansabga ko'tarilishi va yana bir parcha qog'oz bilan undan tushirilib, siyosatdan qo'lini yuvib, tinchgina imomgarchilikka o'tgani hikoya qilinadi. Oxundning buyruqni ochib ko'rayotgan paytda bir parcha qog'oz haqida shunday deyiladi: “Meni ko'rma, ham kuyma!” degandek bo'lib, o'z-o'zidan shaldiramasdan buklanib ketadi. “Meni ko'rma, ham kuyma!” – ko'rmoq boru, yemoq yo'qqa ya'qin ma'noda ishlatilgan maqol bo'lib ko'rib qolsa, olgisi keladi lekin qo'li yetmaydi. Shuning uchun ko'rmayin ham, kuymayin ham, deb aytiladi. “Juvonboz” hikoyasida savdogarning yolg'iz o'g'li Sa'dulla yaqin o'rtog'i Rahimjon bilan bog'da mehmonlariga taom keltirib, dasturxon yozadilar. Rahimjon Mehmonlarga musallas quyib beradi. Chapani yigitlar “Xo'b o'tkur bo'libdi-da, hozirim-huzurim”, deb mayni simirib ichadilar. Hozirim- huzurim (Bir kunlik huzuringga uchma, Bir kunlik huzur, ertangi rohatni buzur ) faqat hozirgi, bugungi rohatini, huzur-halovatinigina o'ylaydigan, ertangi kunini o'ylamaydigan, keyin keladigani bilan ishi bo'lmaydigan odamlarga kinoya tarzida aytiladi.

“Bozor surishtirmaydir” kichik felyetonida: hikoya qiluvchi tilidan, Har kim bo'lsa ham o'tmas matohini o'tkurib qolsin. Vaqt kelur, bozor kasod bo'lur, xalq molning yaxshisini tilar, har kasbda haqiqiy ustalargina qolur, boshqalar o'z chorug'ini sudrar va

sudrashga majbur bo'lar. Shungachi o'rtoq, tishni-tishga qo'yib, damni ichga olib, tinchkina yurmoq kerak! Ammo hozir bozor surishtirmaydir! Toshka yomg'ur kor qilmaydir! Toshka yomg'ur kor qilmaydir – aslida tomchi toshni teshadi, tomchiga tosh chidamas shaklida bo'lib asarda teskari qo'llanib, ma'no kuchaytirilgan. Bular bilan “G'am-qayg'uning katta-kichigi bo'lmaydi. Oz-ozdan bo'lsa ham, kishini asabini buzib, ich-etini kemirib, umrini “egovlab”, axiri adoyi-tamom qiladi”, demoqchi. Boshqa yomg'ur kor qilmaydir! Bu maqolni o'zgartirish o'rqali muallif butunlay boshqa jarayonni izohlamoqchi. Aslini olib qaraganda, tomchi tomchilagani sayin toshni teshishi kerak lekin yozuvchi shunday bir davrni tasvirlamoqdaki, hatto yomg'ir ham toshga ta'sir eta olmaydi.

### XULOSA

Maqollar xalqning ma'naviy mulki bo'lib, xalq badiiy asarlarida turli maqsadlarda foydalaniladi. Abdulla Qodiriy xalq maqollarini o'z asarlarida unumli ishlatib, ularning purhikmat va purma'no fazilatidan foydalanib, o'quvchi e'tiborini jalb qilishga erishadi. Yozuvchi maqolni ba'zan o'z asl holicha, ba'zan butunlay o'zgartirib o'z badiiy asarlarida qo'llab, ularning ta'sirchanligini, badiiyligini oshiradi. Asarda berilgan maqollar voqealarni ommaga yetkazishga xizmat qiladi. O'quvchini xalqqa yaqinlashtirishga erishadi. O'quvchi asarga o'z qadr doni kabi munosabatda bo'lishiga erishadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A.Qodiriy “Diyori bakr”, Toshkent, Yangi asr avlodi, 2007-yil
2. Mirzayev T. “O'zbek xalq maqollari”. –Toshkent: 2003.
3. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq 2012.
4. O'zbek xalq maqollari. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at Nashriyoti, 1978.
5. O'zbek xalq maqollari. II tomli. – Toshkent: O'zbekiston fan nashriyoti, 1988.

**WRITTEN TRANSLATION AND SIMULTANEOUS INTERPRETATION–  
SIBLINGS OR DISTANT COUSINS.**

**Bayniyazova Hurliman Atabai kizi**  
*Uzbekistan State University of World Languages*

**Abstract.** *This article discusses the two types of translation, simultaneous and written translation, as well as their similarities.*

**Key words.** *Translation, simultaneous translation, written translation, language, international communication, conversation, texts, conferences.*

Translation and interpreting is one of the oldest fields that have been forming in the culture of the peoples of the world for centuries. The peoples who have been living in different continents and regions of the earth for several thousand years have expressed their creative passions, interests, opportunities, and interests through means of translation. Through translation and interpreters, mankind became aware of each other and communicated with each other. Translation plays a huge and important role in human development and cultural life.

Translation is a type of literary work that consists of re-creating texts, proverbs, phrases in one language in a new language. Translation is one of the most important aspects of international communication. Translation arose in ancient times due to the need for communication between people of different tribes. This oral form, called *tilmochlik*, is still preserved today. Over time, the requirements for translation are gradually updated. But its creative character, the art of re-creation, does not change. The extent and progress of translation depends on the educational level of each nation and, in turn, it effectively affects the social thinking of the nation. The concept of "translation" refers to the process of conversion from one language to another, as well as the finished translation work.

Most simultaneous translation researchers understand the strategy as a skill or specific skills required of a conference interpreter in message processing when translating from the source language to the target language. A strategy in simultaneous translation is a method of performing translation tasks, which consists in adequately delivering the communicative goal of the sender from the original language to the translation language, taking into account the cultural and personal characteristics of the speaker, the base level, language supercategories and subcategories.

Many types of translation are used nowadays, including simultaneous translation, and today we see that the importance of simultaneous translation in many institutions has become commonplace among many people. Like other translations, simultaneous translation has its own types, and this translation also has legal rules and conditions and methods of execution. In fact, the meaning of simultaneous translation includes several

meanings according to the tasks and tools. We will discuss and explain all these rules and methods as much as possible. Translation refers to the translation of spoken or written texts from the original language into a second language while retaining the same meaning. Also, if we take the word synchronous, it means to happen in an instant. Similarly, if you take the word synchronous, it means an instantaneous event, that is, the word synchronous takes the characteristic of immediate and instantaneous speed. . We can say that simultaneous translation is the translation of speech or texts from the original language into another language while preserving the full meaning of the original language.

In simultaneous interpretation, the interpreter uses several strategies at the same time. The decision is usually made on a case-by-case basis. Linguistic and extralinguistic factors definitely influence this situation. The waiting strategy is often used in translations from languages where the meaningful verb comes at the end of the sentence in the world translation practice. For example, when using a trial-and-error strategy from German or Dutch, the main task of the translator is to get or know more and more context in order to make the right decision. The waiting strategy is close to the Stolling and Saussionage strategies and should be considered at the same time as the "waiting strategy". In general, all the strategies available in simultaneous interpretation should be considered together

There are many meetings and international conferences where the use of simultaneous interpretation is necessary and indispensable, and this interpretation is a conversation between diplomats and delegations, whether these interviews are direct or indirect. It does not matter whether it is in one place or using the ether or the Internet, the following are the most important of these situations:

1. Conferences: There are many international conferences attended by many nationalities and in these conferences interpreters speak several languages and here the conference management assigns interpreters to convey the speech in the conference, for example we often see conferences. the participants wear headphones because these headphones are the means by which the translation is transmitted to them. It includes seminars, meetings, international forums and many other meetings and conferences.

2. Media materials: When broadcasting the facts of an event live, for example (United Nations session), some media outlets need to assign a simultaneous interpreter to simultaneously translate all the speeches in that session.

3. Meetings or interviews: When a foreign delegation arrives in an Arab country, we see that some of this delegation is accompanied by an interpreter, so whether they are at the airport, in a restaurant or in other places, the interviews are considered a process of simultaneous interpretation. in which the interpreter acts as an intermediary between the guests and the other party.

When it comes to translation, you need to have sufficient skills in translation techniques and the ability to think deeply. If you are translating in an artistic style, you

have to express artistry, solemnity, and also skillfully use lexical and grammatical changes to make the translation artistic: change the order of words, so replacement of parts (inversion), cause-and-effect relationships, etc. If it is in scientific style, you are required to translate using scientific terms based on facts and scientific examples. Translation is not copying, especially in the field of art, if the translator is creative with his aesthetics, if he artistically expresses the story of the work he is translating, as well as the author's life, then the translator has created effectively in this field.

It is up to a skilled translator to choose which of the two types, because for someone it is easier to go to translate all day, for another it is more convenient and interesting to sit at home at the computer all day and do written translation. may be.

### REFERENCES:

1. Salomov G'. An Introduction to Translation Theory. Tashkent: Teacher, 1978.
2. Salomov G'. Culture of translation. - Tashkent: Teacher. - 1982. - 197b. <https://cyberleninka.ru/article/n/sinhronnyy-perevod-v>
3. Salomov G. Language and translator. Toshken: Science. 1966.
4. Solijonov Juraali Kamoljnovich. (2022). Lingua-perspective Problems and Solutions of Translating the Plant and Food Names in the "Harry Potter" books from English into Uzbek. ASEAN Journal on Science & Technology for Development, Vol 39(No 4), 221–229. doi: 10.5281/zenodo.6607317 <https://doi.org/10.5281/zenodo.6607317>
5. Hamidov X, Ismatullayeva N, Ergasheva S. Synchronous translation. - Tashkent: Tashkent State Institute of Oriental Studies, 2020.

**SUD-HUQUQ TIZIMIDA INSON HUQUQLARINING USTUNLIGI****Mashrabjonov Mirziyo Mirzohid o'g'li***Namangan davlat universiteti Yuridik fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan inson huquqlariga qay darajada e'tibor berilganligi, ayniqsa Jinoyat protsessidagi olib borilayotgan barcha protsessual jarayonlarda mansabdor shaxslarning inson huquqlariga putur yetkazmasdan harakat qilishlari yuzasidan o'tkazilayotgan joriy islohotlar hamda O'zbekiston Respublikasining inson huquqlari sohasidagi milliy normativ-huquqiy hujjatlari bayon qilingan. Bundan tashqari bugungi kundagi O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili, jumladan ushbu islohotlarning bugungi kundagi ahamiyati hamda uning jamiyatdagi o'rni va roli tahlil qilingan. Bundan tashqari ushbu maqolada so'ngi yillarda mamlakatimizda inson huquqlari sohasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy jihatdan keng tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar :** *huquq, inson, islohotlar, huquq tizimi, inson huquqlari, shaxs, jamiyat, davlat, islohotlar, ijtimoiy huquqlar, tabiiy huquqlari.*

**Аннотация:** *В данной статье изложены текущие реформы законодательства Республики Узбекистан в области прав человека, особенно в отношении действий должностных лиц во всех процессуальных процессах в уголовном процессе без ущерба для прав человека, а также национальные нормативные правовые акты Республики Узбекистан в области прав человека. Кроме того, анализ реформ, проводимых сегодня в Республике Узбекистан в области прав человека, а также анализ сегодняшнего значения этих реформ, их места и роли в обществе. Кроме того, в данной статье проведен обширный юридический анализ нормативных правовых актов, принятых в последние годы в нашей стране в области прав человека.*

**Ключевые слова:** *право, человек, реформы, правовая система, права человека, личность, общество, государство, реформы, социальные права, естественные права.*

**Annotation:** *this article describes the level of attention paid to human rights by the legislation of the Republic of Uzbekistan, especially the current regulations on the activities of officials in all procedural processes in criminal proceedings without compromising human rights, as well as the national regulatory legal acts of the Republic of Uzbekistan in the field of human rights. In addition, the analysis of the reforms carried out in the field of human rights in the Republic of Uzbekistan today is also analyzed the importance of these reforms today and its place and role in society. In addition, this article extensively analyzes the legal aspects of regulatory legal acts adopted in the field of human rights in our country in recent years.*

**Keywords:** *law, human, reforms, legal system, human rights, identity, society, state, reforms, social rights, natural rights.*

**KIRISH**



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi taxrirda inson huquqlari ustuvorligi yuqori darajaga ko'tarildi

Konstitutsiyamizning 2-bolimida insonlarning shaxsiy huquqlari muxofazasi borasidagi o'zgarish ayniqsa e'tiborga loyiq.

Qomusimiz 27-moddasida har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega ekanligi takidlanga va hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi, ushlab turilishi, qamoqqa olinishi, qamoqda saqlanishi yoki uning ozodligi boshqacha tarzda cheklanishi mumkin emasligi mustahkamlangan.

Hibsga olishga, qamoqqa olishga va qamoqda saqlashga faqat sudning qaroriga ko'ra yo'l qo'yiladi. Shaxs sudning qarorisiz qirq sakkiz soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emas.

Insonlarni tutqinlikda saqlash mumkin emas. Shaxsni ushlab chog'ida unga tushunarli tilda uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari tushuntirilishi shart. Asossiz ushlab turish tegishli javobgarlikni vujudga keltiradi.

Aybsizlik tamoyili xalqaro normalar darajasida mustahkamlandi. Jinoyat sodir etganlikda ayblanayotgan shaxs uning aybi qonunda nazarda tutilgan tartibda oshkora sud muhokamasi yo'li bilan isbotlanmaguncha va sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi bilan aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanadi. Ayblanuvchiga o'zini himoya qilish uchun barcha imkoniyatlar ta'minlanadi.

Aybdorlikka oid barcha shubhalar, agar ularni bartaraf etish imkoniyatlari tugagan bo'lsa, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yoki mahkumning foydasiga hal qilinishi kerak.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emas va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkin.

Xatto, yaqin qarindoshlarga nisbatan ko'rsatma berish ta'qiqlanishi asosiy qonunimizda mustahkamlanishi insonlarning qalbi darajasidagi eng muhim norma hisoblanadi

Hech kim o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi guvohlik berishga majbur emas. Tan olishdan boshqa dalil mavjud bo'lmasa, aybdor deb topilmasligi qoidasi, ya'ni agar shaxsning o'z aybini tan olganligi unga qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi adolatlilikning eng ko'rkam ko'rinishidir.

Mamlakatimizda ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar o'ziga nisbatan insoniy muomalada bo'linishi hamda inson shaxsiga xos bo'lgan sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilinishi huquqiga ega.

Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas. Avvalgi davrda sudlanganlik barcha nasliga nisbatan ta'sirini o'tkazib kalar edi.

Hozirgi dunyoda inson huquqlari yetakchi o'rinni egallashi umume'tirof etilgan dalildir. Inson huquqlari masalasining har qanday sivilizatsiyalashgan, adolatlilik

fuqarolik jamiyatini qurishdagi rolini kamaytirib bo'lmaydi. Demokratik, huquqiy davlat qurishning bosh sharti asosiy huquq va erkinliklarni rag'batlantirish va himoya qilish hamda jamiyatda har bir insonning huquqlarini kafolatlashning haqiqiy tizimini yaratish hisoblanadi. Inson huquqlari yer yuzida hayotning to'laqonligini belgilaydi hamda millatlar madaniyatlarining ajralmas qismi, insoniyat ma'naviy-huquqiy ideallarining eng yuqori darajada ko'rinishi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun ham, hozirgi zamon dunyosining ma'naviy qadriyatlari orasida umume'tirof etilgan inson huquqlari eng muhim o'rinlardan birini egallaydi. BMT Nizomi va xalqaro konvensiyalarda hamda dunyoning turli mamlakatlari konstitutsiyalarida mustahkamlangan inson huquqlari fundamental va ajralmas huquqlar sifatida ongimizga singib bormoqda. So'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik va tashkiliy-huquqiy bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi yuzasidan BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalarni taqdim etib kelmoqda. Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq va Virtual qabulxonalari, shuningdek, Bosh vazirning Tadbirkorlar murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha qabulxonalari alohida o'rin egallamoqda. Sud-huquq sohasini yanada demokratlashtirish, Konstitutsiya ustuvorligi, qonun oldida tenglik, insonparvarlik, adolatlilik, sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash, sud jarayonida tortishuv tamoyillarini tatbiq etish, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirish, «Xabeas korpus» institutini kengaytirish, tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui qabul qilindi.

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlashda, nizolarni sudgacha hal qilishda va taraflarni yarashtirishda advokatlarning vakolatlari sezilarli darajada kengaytirilmoqda. Sudlarda ishlarni ko'rib chiqishda adolatni, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash uchun «Elektron odil sudlov» tizimi joriy etildi. Aholiga bepul yuridik yordam ko'rsatish tizimi, shuningdek, Advice.uz huquqiy ma'lumotlar tizimining imkoniyatlarini kengaytirish hamda fuqarolarga bepul huquqiy maslahatlar xizmatini ko'rsatuvchi «Madad» nodavlat notijorat tashkilotini qo'llab-quvvatlash bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilindi.

Ma'muriy, jinoiy, jinoyat-protsessual va jinoyat-ijroiya qonunchiligi takomillashtirib borilmoqda hamda insonparvarlik tamoyiliga yanada moslashtirilmoqda. Afv etish va jamoat birlashmalarining kafilligi ostida shaxslarni

jazodan ozod qilishning mutlaqo yangi tizimi joriy etildi. Qoraqalpog'iston Respublikasining Jasliq qo'rg'onida joylashgan ixtisoslashtirilgan jazoni ijro etish koloniyasining yopilishi muhim insonparvar voqelik bo'ldi. Qabul qilinayotgan chora-tadbirlar natijasida ozodlikdan mahrum qilish joylarida saqlanayotgan mahkumlarning soni 2,5 baravar kamaydi.

Kelajakda inson huquqlarini sudlarda qadr etilishi, sudlovdagi tamoyillar mamlakatimizda istiqomat qilayotgan barcha axoliga tushuntirilishi lozim. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasini yanada yuksaltirish oldimizdagi burchimiz ekanligi biz yoshlarda burchlilik tuyg'usini alanga oldiradi.

Biz "Taraqqiyot strategiyasi" va "Strategiya 2030" dasturlarini xayotga tadbiiq etishda avangardlar bo'lamiz

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi
3. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi
7. Shavkat Mirziyoyev BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46sessiyasida nutqi
8. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining Rezolyusiya 217 A (III) bilan 1948 yil 10 dekabrda qabul va e'lon qilingan
9. Inson huquqlari umumiy nazariyasi: IIV tizimidagi ta'lim muassasalari tinglovchi va kursantlari, shuningdek huquqni muhofaza etuvchi organlar xodimlari uchun darslik. — T., 2012. — 304 b
10. Саидов А.Х.. Международное право прав человека: Учебное пособие / Отв.ред. акад. Б.Н. Топорнин. М., 2002. - С. 80.
11. Образование в области прав человека: национальный и зарубежный опыт / Отв. изд. А.Х. Саидов. - Ташкент: Национальный центр Республики Узбекистан по правам человека, 2011. - С. 11.
12. Quvonchbekovna, O. S. The importance of "Kazilik adabi" in Abu Bakr Kasani's work "Badoi-us-sanoe". International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA, (01).
13. Чубоева, О. НИГИЛИЗМ-ХУКУҚИЙ ОНГ, ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛИДАГИ ХАВФЛИ ОМИЛИ. In TURKEY International scientific-online conference:" THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH (No. 1 Part 5).
14. Чубоева О. О'ЗБЕКISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TAMINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS/2022-PART, 10.



15. Чубоева, О. Янги Ўзбекистон–III ренесансида хотин-қизлар ижтимоий ҳимояси. a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022)-Copenhagen: 2022

16. Ozodakhon, C. (2022). New Uzbekistan: Administrative Management Reform. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 123-125

17. Kuvonbekovna, C. O. (2024). OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOG, 7(2), 194-198.

<https://lex.uz/uz/docs/-6445145>

<https://lex.uz/docs/111453>

**OILANI MUSTAHKAMLASH MASALALARI.****Chuboyeva Ozodaxon***NamDU yuridik fakul'teti katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada oila mustahkaligi borasidagi fikrlar bayon etilgan, nikoh, oila qurish insoniyat orasida joriy qilingan muqaddas qonunlaridan biri bo'lib, nasl-nasabning davomiyligi, insonlar orasida qarindosh-urug'chilik, mehr-oqibatni mukammal bo'lishi kabi insoniyat uchun manfaatli maqsadlarga xizmat qiladi. nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Nikoh, nikoxdan ajralish, jamiyat taraqqiyoti, nasl-nasab, oila, muhabbat, oilaviy an'ana, qadriyatlar.*

**Аннотация:** *В данной статье брак и построение семьи являются одними из священных закон человечества, и служат благотворным целям человечества, таким как преемственность рода, родство между людьми, совершенство привязанности. Представлена информация о применении гражданства и правовых норм в брачных отношениях.*

**Ключевые слова:** *Брак, расторжение брака, развитие общества, генеалогия, семья, любовь, семейная традиция, ценности.*

Insoniyat bu hayotdan mazmun topish uchun yashaydi. Yashash jarayonida ijtimoiylashib borar ekan, u dastlab oilada, bolalar bog'chasida va oila, o'rtoqlari davrasida va oila, maktab va oila, oliygox va oila, mehtat jamoasi va oila, turli maqsadli guruxlar va oila, ...Agar qaysi davraga borsada o'z oilasiga qaytsa va qalbu o'z oilasida taskin topsa, bu inson yetuklikka intilayotgan insondir.

Chunki, o'z ildizini mustahkamlash uchun unda imkoniyat, maqsad, tarbiya, ma'naviy baza mavjud. Agar inson mana shu oila deb atalmish makonni obod qilsa, jamiyat obodligiga hissa qo'shadi, agar oila bardavomligini saqlasa, jamiyat kelajagini saqlaydi, oiladagi ma'naviy, moddiy asoslarni sof tuyg'ular bilan saqlasa jamiyat barkamolligi ildizlarini saqlaydi.

“Birinchi vazifa – biz uchun muqaddas bo'lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash, xonadonlarda tinchlik-xotirjamlik, ahillik va o'zaro hurmat muhitini yaratish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni aniq mazmun bilan to'ldirishdan iborat bo'lmog'i zarur”ligini Yangi O'zbekiston asoschisi bo'lgan Prezident Sh. Mirziyoyev tomonidan doim takrorlanmoqda.

Qalb halovati inson hayotining mazmunidir. Bunday halovatni, avvalo, har bir kishi o'z oilasida topmog'i lozim. Agar kishi o'zining yaqinlari orasida halovat topmasa, uni ko'chadan, do'stlaridan, ba'zan begonalaridan izlay boshlaydi. Endigina turmush qurgan yosh oilani olaylik. Ular xuddi ulkan kemada uzoq safarga chiqqan yo'lovchilarga o'xshaydi. Kemaga chiqishadiyu, bir-birlariga hech qachon ortga

qaytmaslikka, doimo birga, bahamjihat bo'lishga barchaning guvohligida so'z berishadi. Turmush safariga chiqqach, yoqimli va huzurbaxsh onlar bilan bir vaqtda insonning ko'ngliga g'ashlik soluvchi, sovuqlik paydo qiluvchi holatlar ham bo'lib turadi. Shunday vaqtda kimdir kemadan tushib qolmoqchi bo'ladi. Bu sakrash kimlar uchundir najot yo'li bo'lib ko'rinsa-da, aslida o'zini nahanglar og'ziga tashlayotgani, halokatga qarab ketayotganini anglamaydilar.

Oilada parokandalik vujudga keladi. Bu parokandalik insonni sabrsizligi, yengil-yelpi hayot uchun intilishi natijasida shakllanadi.

Insonlar oila muqaddasligini, oila a'zolarining unga berilgan ilohiy tufxa ekanligini anglamas ekan, xayot mazmunini ham tushunmaydi.

Inson sivilizatsiya yuqori cho'qqishini ma'naviyatsiz egallagan sari oila qadrini kamroq baholay boshlaydi.

Oila kichik jamiyat, uni mukammal saqlash oliy qadriyat, lekin, so'nggi yillarda nikohdan ajralishlar brogan sari ko'paymoqda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi bergan ma'lumotga e'tibor qaratamiz.

O'zbekiston Respublikasida yillar kesimida nikohdan ajralishlar soni:

2016-yil: 29 340 ta

2017-yil: 31 929 ta

2018-yil: 32 326 ta

2019-yil: 31 389 ta

2020-yil: 28 233 ta

2021-yil: 39 349 ta

2022-yil: 48 733 ta

Statistikadan ko'rishimiz mumkinki nikohdan ajralish jarayoni qilyin bo'lishiga qaramasdan, ajralishlar soni oxirgi yillarda keskin ortgan. 2023 yil avgust oyidagi Oila va xotin qizlar qo'mitasining O'zAga ma'lum qilishicha, mamlakatimizdagi oilaviy ajrashishlar 8 oyida malakatimizda 33 mingdan ortiq oila ajrashgan. Ushbu yilning 8 oyida 25 ming nafarga yaqin bolalar ota yoki onaning to'liq mehridan bebahra qolmoqda, deyilgan axborotda

Albatta, buning sabablar o'rganilishi lozim. Endi yuqoridagi raqamlarni Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida ko'rib chiqamiz (2022-yil uchun)

1.Qoraqalpog'iston R: 2067 ta

2.Andijon 5013 ta

3.Buxoro 2561 ta

4.Jizzax 1730 ta

5.Qashqadaryo 3471 ta

6.Navoiy 1431

7.Namangan 4389 ta

8.Samarqand 4904

9. Surxondaryo 2804 ta
10. Sirdaryo 1761
11. Toshkent v 5080 ta
12. Farg'ona 5451 ta
13. Xorazm 2137
14. Toshkent sh 5934 ta

Namangan viloyatidagi ayrim raqamlarga e'tibor qaratamiz. Birgina sud qarorlariga asosan nikohdan ajratilgan oilalar soni 2022 yili 2 ming 666 tani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan viloyatda sud orqali nikohdan ajratish holatlari 576 taga ko'paygan. Ajrimlar oshishiga esa asosan Namangan shahri (650 ta), Chust (259 ta), Chortoq (221 ta), Pop (217 ta) va Uychi (196 ta) tumanlarida yo'l qo'yilgan deb xabar berilmoqda.

Oila muqaddas maskan. Oilani mustahkamlash oliy qadriyat. Oilani mustahkamlash uchun qilingan xarakter eng ezgu xarakterdir.

Oila qurishni tabiat qoidasi va nasllarimizni imon doirasida o'stirish asosiy maqsadimizdir.

Oila qurishni istovchi insonlar oz' oldiga qo'ygan maqsadlari zamona bilan hamnafas bo'lib bormoqda, ayrimlari xavas qilarli mantiqqa ega bo'lsa, ayrimlari insoniylikka munosib maqsad emas.

Dunyo mamlakatlari oilalari mustahkamligi borasida ayrim statistic ma'lumotlarga nazar tashlaymiz:

AQSh da voyaga yetgan qizlar orasida so'rovnoma o'tkazildi. Savol shunday edi. "Qanday erkakka erga tekkan bo'lar edingiz"?

100 ta qizdan 37 tasi boyga, 23 tasi aqliga, 20 tasi sevimli insonga, 15 tasi chiroyli insonga. Qolgan 5 tasi esa boshqalariga nisbatan aqliroq fikr aytgan. Lekin AQSHda oilalar mustahkamligi mutadil emas.

Yaponlar turmushidan ajrashgan odamlarni ishga qabul qilmas ekan. Ularning fikricha, Inson hayotidagi eng qadrlri rishta - nikohni qadriga yetmadimi, demak ishxonaga ham jon kuydirmaydi(qadriga yetmaydi).. ..

Turkmaniston ayollarning shaxsiy hayoti ustidan nazoratni kuchaytirishda davom etmoqda. Oilada ayollar huquqlari kamsitilishi mavjud, oilaviy ajrimlar kam.

Nikohni qayd etish juda oson — ikki soat oldin ariza beriladi, tamom. Gruziyaning Signavi shahri esa norasmiy muhabbat shahri deb tan olingan va u yerda istisno tarzida 24/7 rejimida FHDYo organi ishlaydi, avvaldan ariza bermay nikohni tezda qayd etish mumkin.

Albatta, buning sababi bir uchi gruzin an'analariga borib taqaladi. Gruziyada qiz bir kecha yigitning uyida qolsa tamom — uning xotini sanaladi va endi birga yashashga majbur. Vaqti kelib bola-chaqali bo'lib, taqdir bo'lmay ajrashishga to'g'ri kelsa, mulk va boshqa da'volar qilishga huquqiy asos bo'lmaydi va ko'pincha ayollar hych narsasiz qolib ketishadi. Shu sababli nikohni qayd etish osonlashtirilgan deb tushuntirishdi

O'zbekistonda qonun ustuvor, bu xolat oilaviy munosabatlarga ham ta'sir enadi. Oila qurish uchun albatta tegishli qoidaga ko'ra nikoh qayd ettiriladi. Lekin oila mustahkamligi borasida muammolarimiz yetarli darajada.

Oilalar mustahkamligini ta'minlash uchun qanday sharoit bolishi shart degan savolga bir necha shartlar ko'rsatilmogda.

1. Oilani moddiy ta'minoti va ish bilan ta'minlanish darajasini muvofiqlashtirish;
2. Majburlab turmushga berish masalasini muvofiqlashtirish;
3. Oilada maishiy sharoitlarni talab darajasiga olib kelish;
4. Axloq-odob bo'yicha yetarli ta'lim berish
5. Oiladagi zo'ravonlik va gegemonizm psihologiyasini bartaraf etish

Bu kabi talablar oilani mustahkamlash va oilaviy ajrimlarni bartaraf etish omillari hisobanadi.

Darhaqiqat, oilalarni parokanda bo'lishi hududlardagi ishsizlik va mablag'ni yetarli emasligini ko'rsatib turibdi.

Shu bilan birga aholining bandligi ham turli darajada, bekorchilik mablag' uchun salbiy holatgina bo'lmay odamlar o'rtasida fitnalarni paydo bo'lishi va janjallar yuzaga kelishi uchun ham sabab bo'ladi.

Boshqa korsatilgan sabablar ham oilaning nurashi va parokanda bo'lishi uchun yetarli sabablarni paydo qiladi.

Agar insonlarda axloq-odob, sabrlilik va shukronalik hissiyotlarini tarbiyalasak kelajak avlod oilalari mustahkamligini ham ta'minlagan bo'lamiz. Bu boradayoshlarni kreativ fikrlash ruhida tarbiyalab chiniqtirsak oilalarimiz tinchligi ta'minlanadi.

Shu o'rinda oila mustahkamligi borasidagi bir donishmand fikriga e'tibor qilamiz:

Shayx Ali Tantoviy rahmatulloh alayhi baxtli oila bo'lishning sabablari haqida shunday deydi:

1. O'zim bilgan xonadonga kuyov bo'lganman va meni yaxshi biladigan xonadon menga qizini berdi.
2. O'zimning tengimni oldim (har tomonlama).
3. Oddiy ta'lim olgan ayolni nikohimga oldim.
4. Men ayolimni yuzidagi go'zallikni axtarmadim.
5. O'zim hurmat va ehtirom qiladigan xonadonga va meni ham hurmat va ehtirom qiladigan xonadonga kuyov bo'ldim.
6. Har qanday holatda ham oilamda bo'ladigan hodisalarga birovning aralashishiga yo'l qo'ymadim.
7. Turmushimizning boshidan ayolim qanday bo'lsa, shundayligicha qabul qildim.
8. Ayolimning ishlariga aralashmadim.
9. Ayolimdan hych bir narsani yashirmadim.
10. Ayolimda bo'lmagan narsani talab qilmadim.



**FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy taxlil, . O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. 2016-yil 7-dekabr - Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017.

2. Quvonchbekovna, O. S. The importance of “Kazilik adabi” in Abu Bakr Kasani’s work “Badoi-us-sanoe”. International Scientific Journal ISJ Theoretical & Applied Science Philadelphia, USA, (01).

3. Чубоева, О. НИГИЛИЗМ-ХУКУҚИЙ ОНГ, ДЕМОКРАТИК ДАВЛАТНИНГ ТАРАҚҚИЁТ ЙЎЛИДАГИ ХАВФЛИ ОМИЛИ. In TURKEY International scientific-online conference: " THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH (No. 1 Part 5).

4. Чубоева О. О'ZBEKISTONDA MILLATLARARO TOTUVLIKNI TAMINLASHNING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI.

PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS/2022–PART, 10.

5. Чубоева, О. Янги Ўзбекистон–III ренесансида хотин-қизлар ижтимоий ҳимояси. a collection scientific works of the International scientific conference (15 May, 2022)-Copenhagen: 2022

6. Ozodakhon, S. (2022). New Uzbekistan: Administrative Management Reform. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 9, 123-125

7. Kuvonbekovna, S. O. (2024). OILA MUQADDASLIGI HUQUQIY ASOSLARI. PEDAGOG, 7(2), 194-198.

8. @namangan\_mahalla

9. [https://www.namangan24.uz/zhamiyat/namanganda\\_azhrimlar\\_nega\\_kamayma\\_yapti.html](https://www.namangan24.uz/zhamiyat/namanganda_azhrimlar_nega_kamayma_yapti.html)

10. @PATRUL\_UZ

11. @soatovashaxsiy

**NIKOHNI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI****Normatova Muxarram***NamDU yuridik fakul'teti o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada nikoh, nikoh asosida oila shakllanishi, oila o'z asoslariga egaligi, nikoh tuzish bo'yicha normalar to'g'risida yozilgan*

**Kalit so'zlar:** *nikoh, oila, norma, ijtimoiy soha, iqtisodiyot, huquqiy shartlaar, jamiyat, maqsad.*

**Аннотация:** *В этой статье написано о браке, образования семья по основе брака, семейное основа и о норме заключения брака*

**Ключевые слова:** *брак, семья, норма, социальный отрасль, экономика, правовые условия общества, цель.*

Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Shuningdek, moddiy majburiyatlar qonunda mustahkamlanib, erkaklar oldida majburiyatlar, ayollar oldida ma'suliyatni mustahkamlaydi. Davlat oilaning to'laqonli rivovjlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratib beradi. Jamiyat va davlatning oila xususidagi g'amxo'rliqi avvalombor, davlat yuritayotgan kuchli ijtimoiy siyosatda namoyon bo'lmoqda. Davlat rahbarligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy islohiy chora-tadbirlarning bosh maqsadi inson, oila manfaatlarini qanoatlantirishdan iboratdir. Bugun oilaning benazir nufuzi, ulkan ijtimoiy ahamiyatga molik voqyelik ekanligi hech kimda shubha tug'dirmaydi. Oila jamiyatning asosiy qismi va ijtimoiy tayanchidir. Har bir oilaning bahtiyorligi va farovonligi rivojlanish natijada jamiyatning barqarorligi, gullab-yashnashi hamda farovonligi shartidir. Oila nafaqat inson naslini davom ettirish omili sifatida, balki jamiyat a'zolarini, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy istiqloq g'oyasi asosida tarbiyalash maskani sifatida katta ahamiyatga molikdir.

